

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


02 iyun, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-02 iyun, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- Mart oyida SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'sishni boshladi. O'tgan hafta boshida daromadlilik 8,242% ga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 8,154% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 7,837% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 7,768% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 7,623% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 7,561% – 8,878% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi o'sishni boshladi va 6,898% ga yetdi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik pasayib, 6,758% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,075% – 8,533% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,26-4,49% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,31% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz ko'tarilib, 4,33% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) joriy haftaning boshiga kelib 1,995% (3 oylik) va 2,069% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo hajmi **482,0** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **385,6** million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 939** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib, **12 790** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya **0,09%** ni tashkil etdi.


Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi



02.06.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Anor bank**da qayd etilgan – **12 800** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 830** – **12 970** so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **BRB bank**da qayd etilgan – **12 900** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 880-12 730** so'm atrofida bo'lgan.



➤ Rublning dollarga nisbatan mustahkamlanishi

Valyuta bozoridagi ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil may oyi oxirida AQSh dollarining Rossiya rubliga nisbatan kursi bir dollar uchun 77,5 dan 80,2 rublgacha bo'lgan oraliqda o'zgarib turdi. 26-maydan 30-maygacha bo'lgan davrda eng yuqori ko'rsatkich — 80,2 rubl qayd etildi, so'ng esa kurs 77,5 rublgacha pasaydi.


USD/RUB kursidagi bu dinamika tashqi iqtisodiy omillar, jumladan, neft narxlarining o'zgarishi va geosiyosiy vaziyat bilan bog'liq. So'nggi kunlarda neft narxining oshishi Rossiya rublini qo'llab-quvvatlamogda va milliy valyutaga bo'lgan bosimni kamaytirmogda.



➤ Rublning yuanga nisbatan biroz zaiflashuvi

So'nggi savdo ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya rublining Xitoy yuaniga nisbatan kursi qariyb 1,6% ga pasayib, bir yuan uchun 10,4 rublni tashkil etdi. Ichki valyuta bozorida rublning yuanga nisbatan mustahkamlanish tendensiyasi kuzatilmogda, bu esa Xitoy iqtisodiyotining ijobiy sur'atda rivojlanayotgani va ikki davlat o'rtasidagi savdo munosabatlarining barqarorlashuvi bilan izohlanadi.

Bunday vaziyat investorlarni ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga undamoqda, ayniqsa Rossiya va Xitoy markaziy banklarining muhim iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda qarorlarini kutayotgan bir paytda. Bu omillar valyuta kursining kelgusi dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.



➤ EUR/USD kursining tor doiradagi kichik tebranishlari


2025-yil may oyi oxirida evroning dollarga nisbatan kursi 1,1392–1,1347 oralig'ida bo'ldi. Eng yuqori ko'rsatkich 26-may kuni — 1,1387 darajasida qayd etilgan, 30-mayga kelib esa kurs biroz pasayib, 1,1347 ni tashkil etdi.

Kursdagi ushbu tebranishlar Yevropa va AQShdagi iqtisodiy holat hamda Yevropa Markaziy banki va AQSh Federal rezerv tizimi (FRS) tomonidan kutilayotgan harakatlar bilan bog'liq edi.

Ba'zi tebranishlarga qaramay, evro bozordagi iqtisodiy yangiliklar va investorlar kayfiyatining muvozanatli ta'siri natijasida barqaror bo'lib qoldi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlarini dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



➤ Oltin narxlarini: jahon bozorida keskin pasayish kuzatildi

So'rov natijalariga ko'ra, spot oltin narxlarini untsiyasi uchun 3289 AQSh dollargacha pasaydi. Ichki bozorda asosiy markalarning ko'pchiligida narxlarining barqaror pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu investorlar uchun bozorda sezilarli darajada tuzatish yuz berayotganidan dalolat beruvchi muhim signal hisoblanadi. Bunday vaziyat investorlarni ayniqsa AQShdagi inflyatsiya bo'yicha asosiy ma'lumotlarning e'lon qilinishini kutib, ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga undaydi, chunki bu ma'lumotlar Federal rezerv tizimining pul-kredit siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Brent nefti narxlarini dinamikasi (bir
barrel uchun,
AQSh dollarida)




➤ Neft narxlarini pasayishdan so'ng o'sishni boshladi

Neft narxlarini sezilarli darajada pasaydi. Bunga OPEK+ tashkiloti tomonidan neft qazib olish hajmini sezilarli darajada oshirish bo'yicha kelishuvga erishilishi mumkinligi haqidagi xabar sabab bo'ldi. Dam olish kunlari alyans a'zolari iyul oyidagi "qora oltin" qazib chiqarish parametrlarini aniq lab olishi kerak. O'tgan hafta ular ketma-ket uchinchi oyga mo'ljallangan o'sish hajmini dastlabki tarzda kelishib oldilar.

Brent markali neft fyucherslaridagi yirik spekulyantlarning sof uzun (long) pozitsiyasi tarixiy mezonlarga nisbatan past darajada qolmoqda. Shunga qaramay, bu ko'rsatkich hafta davomida so'nggi etti haftadagi eng yuqori darajaga yetdi. Agar spekulyantlar bu pozitsiyalarni yopishga majbur bo'lsalar, bu holat narxlarining yana pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xavflarni yuzaga keltiradi.

TTF gaz narxlarini dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ TTF gaz narxlarining tebranishi

So'nggi savdo ma'lumotlariga ko'ra, Yevropadagi TTF tabiiy gaz bo'yicha spot narxlar 1,2% ga pasayib, bir megavatt-soat uchun taxminan 38 AQSh dollarini tashkil etdi. Yevropa gaz bozorida narxlarining pasayishiga oid yaqqol tendensiya kuzatilmoqda, bu esa talab va taklif muvozanatidagi hozirgi o'zgarishlarni aks ettirmoqda.

Narxlarining bunday harakati evroning dollarga nisbatan mustahkamlanishi hamda Yevropa yer osti gaz omborlaridagi zaxiralar bo'yicha ijobiy prognozlar bilan izohlanadi. Evro kursining oshishi AQSh dollarida amalga oshiriladigan gaz importi narxini pasaytiradi va bu esa narxlarga bosim o'tkazadi.

Shu bilan birga, investorlar gaz zaxiralari va kelayotgan mavsumdagi iste'mol bo'yicha prognozlar haqida e'lon qilinishi kutilayotgan asosiy makroiqtisodiy ma'lumotlar oldidan ehtiyotkorlik bilan harakat qilmoqda.

Yangiliklar

Royal Bank of Canada (RBC) mijozlarning kredit qobiliyatini baholash uchun sun'iy intellektdan foydalanishni joriy etmoqda, bu esa jarayonni tezlashtirish va qarorlar aniqligini oshirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilaydi va xavflarni kamaytiradi.

Intesa Sanpaolo "yashil" loyihalarga kredit berishni kengaytirib, qayta tiklanadigan energiya sohasidagi moliyalashtirish hajmini oshirmoqda.

Commonwealth Bank of Australia (CBA) ipoteka bitimlarini avtomatlashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida blokcheyn texnologiyasini sinovdan o'tkazmoqda.

Zürcher Kantonalbank (ZKB) mobil bank xizmatlarining xavfsizligini oshirish maqsadida biometrik texnologiyalarni joriy qilmoqda.

